

## **SHOIR LIRIK SHE'RIYATIDA XABAR MAVZUSIDAGI G'AZAL VA BAYTLAR MAZMUNI HAQIDA.**

Mardanov Rahim G'aybulla o'g'li

Jizzax politexnika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiy adabiyot tarixi, xususan, o'zbek adabiyotida Alisher Navoiyning o'mi beqiyosligi, ulug' shoirning g'azallari, ulardagi badiiy tasvir, lirikasidagi obrazlar hamda ularning talqinlari borasida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilganligi, Navoiy lirikasi o'zining mavzu yo'nalishi, obrazlar olamining xilma-xilligi, yuksak badiiyati haqida fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** G'azalchilik, irfoniy, rindona, xabarchi, mashuqa, istiora.

## **О СОДЕРЖАНИИ ГАЗЕЛИ И СТИХА ПО ТЕМЕ ПОСЛАНИЯ В ЛИРИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ ПОЭТА.**

Марданов Рахим Гайбулла угли -

Джизакский политехнический институт

**Аннотация:** В данной статье проведены история турецкой литературы, в частности, несравненная роль Алишера Навои в узбекской литературе, газели великого поэта, художественный образ в них, образы в его лирике и их интерпретации, проведено множество исследований. В лирике Навои были выдвинуты идеи о направленности, разнообразии мира образов, высоком художественном оформлении.

**Ключевые слова:** Газель, мистик, риндона, посланник, возлюбленный, метафора,

## **ON THE CONTENT OF GHAZAL AND VERSES ON THE TOPIC OF MESSAGE IN THE POET'S LYRIC POETRY.**

Mardanov Rahim Gaybulla oglu

Jizzakh Polytechnic Institute

**Abstract:** This article presents ideas about the history of Turkic literature, in particular the incomparable role of Alisher Navoi in Uzbek literature, the fact that numerous research studies have been conducted on the great poet's ghazals, their

artistic depiction, the images in his lyrics, and their interpretations, as well as the thematic direction, diversity of the world of images, and high artistry of Navoi's lyrics.

**Keywords:** Ghazal poetry, mystic, rindona, messenger, mistress, metaphor

Mutaxassislarning fikricha, Navoiy hazratlarining “G‘azalda uch kishi tavrdir ul nav” deb boshlanadigan qit‘asida forsigo‘y ustozlari: Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy nomlarini tilga olib, o‘z g‘azallarining yaratilishida bu ijodkorlar ko‘osatgan ta’sirni alohida e’tirof etadi. G‘azallaridagi irfoniy-ma’rifiy, ishqiy va rindona mavzular badiiy talqinining ildizlariga ishora qiladi.[ Sirojiddinov Sh. 2019]

Ulug‘ shoir lirikasida ko‘p uchraydigan obrazlardan biri qosid – xabarchi timsolidir. Ma’lumki, Sharq she’riyatida qosid ikki inson o‘rtasidagi vositachi – ularning xabarini bir-biriga yetkazuvchi timsol sifatida talqin qilinadi va shoirlarning xabar mavzusidagi she’rlarining asosiy obrazi sanaladi. Xabar mavzusidagi she’rlarda nafaqat ma’shuqa, balki qosid xususidagi qarashlar ham oydinlashadi. Ulug‘ shoirlar o‘z she’rlarida komillik, o‘z va o‘zlikni anglash sirlariga e’tibor qaratar ekanlar, ayni paytda oshiq va qosidga doir haqiqatlardan keng bahs yuritishgan, oshiq va qosidni bir-biriga bog‘liq holda talqin qilishgan. Zero, qosid oshiqning ishq yo‘lida yuksalishi borasida muhim o‘rin tutadi, ya’ni ma’shuqa vasliga etishish yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklar va iztiroblarni qosid etkazgan xabar orqali engib chiqadi, bu jarayonda ishq sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tish borasida tajriba orttiradi, ma’shuqasi timsolida Yaratganni taniydi, komillikka erishadi.

Mumtoz adabiyotdagi kabi Hazrat Navoiy g‘azaliyotida ham ma’shuqa ko‘p hollarda ishq va ilohiy sirlar egasi – Husni mutlaq sifatida talqin etiladi. Ma’lum ma’noda oshiqni ana sirlardan ogoh etish vazifasini qosid bajaradi. Mumtoz she’riyatimizda ishq qiynoqlaridan zorlangan, ba’zan xasta, ba’zan telba, gohida o‘zini butkul unutgan oshiq tasviri qosid timsoli vositasida yanada yuksak badiiyat

bilan ifodalangan. Bunday tasvir bilan bogʻliq oʻrinlarda his-tuygʻular, ichki kechinmalar ifodasiga alohida urgʻu beriladi.

Hazrat Navoiyning “Badoe’ ul-bidoya” devonida 535-raqami bilan qayd etilgan gʻazalni qarab chiqamiz:

***Subh etkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin,***

***Yo koʻngul topti Masih anfosidin jon mujdasin.***

*Sabo tongda kulib turuvchi ma'shuqa xabarini keltirdi, bu go'yoki oshiq ko'ngli Masih (Iso) nafaslaridan jon xabarini topganga o'xshaydi.*

Bir qaraganda, baytda oddiy hayotiy voqea aks etgandek tuyuladi: oshiqning tongda yordan xabar – maktub olishi goʻyo uning koʻngliga Iso Masih nafaslaridan jon xabari etganga oʻxshatilgan. Aslida chuqurroq nazar tashlasak, unda tasavvufiy ohanglarni sezish qiyin emas. Chunonchi tasavvufda solikning maqsadi Alloh tajalliysiga, ya'ni ma'shuqa vasliga erishish sanaladi. Baytda keltirilgan *gulbargi xandon* – *kulib turuvchi ma'shuqa* birikmasi Allohning mazharidir. Sabo oshiq – solikka Yordan xabar etkazuvchi qosidni ifodalagan. Shunisi ahamiyatliki, oshiq yor xabarini tongda olyapti. Bunda ham tasavvufiy ma'no bor: vasl istab ishq yoʻliga kirgan va yordan xabarsizlik, ya'ni Allohni tanish baxtidan mosuvolik hajr tuni bilan ifodalanadi. Yordan, ya'ni Allohdan solikning darak topishi oʻsha tunning tongiga oʻxshaydi. Baytning ikkinchi misrasida Allohning xabarini bandalariga etkazuvchi paygʻambar Iso Masih nomining keltirilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Diniy manbalarda rivoyat qilinishicha, Alloh har bir paygʻambariga bandalarini ishontirish uchun muayyan bir sifat yoki narsa beradi, jumladan, Sulaymon paygʻambarga uzuk, Muso paygʻambarga aso bergan boʻlsa, Yusuf paygʻambarga tushni ta'birlash, Iso paygʻambarga hatto nafasi bilan oʻlikni tiriltira oladigan tabiblik xislatini beradi. Shoir ana shu jihatlarni nazarda tutib, tongda saboning yor xabarini keltirganligini oshiqning koʻngli Iso Masih – paygʻambar, ya'ni Allohning xabarchisi nafaslaridan jon xabarini topganga oʻxshatyapti. Yordan xabarsiz – jonsiz koʻngilga Iso nafaslaridan jon baxsh etuvchi xabar kelganligi solikning Allohni taniy boshlaganiga ishora qilinyapti. Demak, baytda xabar va uni etkazuvchi qosid mavzusi etakchilik qilyapti. Baytda talmeh san'atidan – ijodkorga

tarixiy yo afsonaviy voqealarga, masallar, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini mo'jaz holda kuchaytirish uchun imkoniyat tug'diruvchi san'atdan[Y.Ishoqov. 2006] foydalanilgan.

Ikkinchi baytda bu fikr yanada rivojlantiriladi:

***Yo falak berdi yig'i ko'r aylagan Ya'qubning  
Ko'zlari ochilmoq uchun mohi Kan'on mujdasin.***

Baytni to'g'ri tahlil qilish uchun unda keltirilgan Ya'qub so'zi va mohi Kan'on birikmasining ma'nolarini ochiqshirib olamiz. Muqaddas diniy kitoblardan ma'lumki, Ya'qub alayhissalom Ishoq payg'ambarning o'g'li, Yusuf payg'ambarning otasi bo'lgan. Yusuf uning o'n ikki o'g'lidan eng sevimlisi bo'lgan. Yusufning hayoti tarixi Qur'onning 111 oyatdan iborat "Yusuf" surasida bayon qilingan bo'lib, Qur'onda 27 marta zikr qilingan. Qur'onda aytilishicha, Yusufning ko'ylagi Ya'qub alayhissalomning yuziga tekkach, uning ko'zlari ochiladi. Shoir baytda yuqoridagi diniy afsonaga ishora qilib, Alloh irodasi bilan falakning o'zi o'g'li dog'ida ko'zi ko'r bo'lib qolgan Ya'qubga ko'zlari ochilishi uchun mohi Kan'on – Kan'on oyi, ya'ni Yusuf xabarini berganligini badiiy tasvirlagan. Bu baytda ham xabar mavzusi etakchilik qilgan.

Ulug' shoir baytda talmeh san'atining ikki turidan, ya'ni ochiq talmeh (Ya'qub) va yashirin talmeh (mohi Kan'on – Yusuf payg'ambar sifatlaridan biri)dan mahorat bilan foydalangan. Shuningdek, baytdagi *yig'i-ko'r-ko'z* hamda *falak, moh* so'zlari vositasida ikki marta tanosib san'ati ham vujudga kelgan.

Uchinchi baytda ishq yo'lga kirgan oshiqning asosiy maqsadi bayon qilingan:

***Ne guli xandon, ne Isodur, ne Yusuf mujdasi,  
Topti bir mahjur o'lar holatda jonon mujdasin.***

Darhaqiqat, ishq shunday ilohiy tuyg'uki, uning hijroni sinovlarida toblangan oshiq uchun barcha dunyoviy narsalarning ahamiyati yo'qoladi. Yor hajri mashaqqatlari zahmatini chekkan oshiq holi ma'lum ma'noda yuksaladi, ishqning muayyan darajasiga erishadi. Endi u uchun bu dunyo bilan bog'liq ashyolar: kulib ochilgan gulning, Isoning jonbaxsh, Yusufning ko'r ko'zni

ochishga qodir xabari ham oshiq uchun o'z qiymatini yo'qotgan. Chunki bulardan muayyan vaqt yiroqda qolgan oshiq o'lar chog'ida jonon – Ma'shuqi mutlaq xabarini topdi. Baytda shoir talmeh (Iso, Yusuf) va istiora (guli xandon – kulgan gul, ya'ni ma'shuqa) san'atlaridan foydalangan.

To'rtinchi baytda xabar mo'jizasi, qudrati haqida so'z boradi:

***G'uncha erdim g'am elidin, to'ng'a sig'mon g'unchadek,***

***To sabo etkurdi ul sarvi xiromon mujdasin.***

Baytda hijron va ayriliq azobidan qovrilib, o'zini g'am shamolida qolgan g'unchaga qiyoslagan lirik qahramonning tong shabadasi o'sha tik qomatli yor xabarini etkazganidan so'ng g'unchadek to'nga sig'maganligini, ya'ni umid g'unchasi ochilib, gulga aylangani tasvirlangan. Ya'ni oldingi baytlarda bayon qilingan xabar mavzusi bunda ham davom ettirilgan. Xabar, ayniqsa, yor xabarining qudrati shundayki, u g'unchani gulga aylantira oladi. Baytda tashbeh (*g'unchadek to'nga sig'maslik*) va tashxis (*saboning yor xabarini keltirishi*) san'atlari qo'llangan.

Keyingi baytda yor xabarchisi bilan quyosh xabarchisi – tong eli o'zaro bir-biriga o'xshatilgan:

***Hajr aro, ey payk, agar sen noma etkursang, ne tong***

***Tong eli har kun berur xurshidi tobon mujdasin.***

Har bir kunning, aksariyat hollarda, tong eli bilan boshlanishi tabiiy hol. Shoir ana shu holdan foydalanib, baytning ikkinchi misrasida tong elini quyosh xabarchisi sifatida tasvirlab, birinchi misradagi fikrni, ya'ni hajrning qora tunida xabarchining ma'shuqadan xabar keltirishini hayotiy misol bilan dalillagan va mumtoz she'riyatimizda *tamsil* deb ataladigan san'atni qo'llagan [Mardanov R. 2023].

Shu o'rinda tamsil san'ati haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik:

Mumtoz adabiyotimizga doir manbalarda tamsil san'atiga quyidagicha ta'rif beriladi:

Tamsil (ar. تمثيل – misol keltirish, dalillash) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, she'rda ifoda etilgan fikrni hayotiy misollar yordamida

dalillash, tasdiqlash, izohlash[D.Quronov. 2013].

Ko‘rinadiki, yuqoridagi baytda tamsiliy munosabat mazkur bog‘lanishning sababiy ildiziga ishora qiluvchi *ne tong* so‘zi vositasida yuzaga chiqqan. *Baytda, shuningdek, payk (xabarchi), noma, mujda* so‘zlari tanosib san‘atini yuzaga keltirgan.

Keyingi baytda ham xabar mavzusi davom ettiriladi:

***Naqdi jon berdim, musulmonlar, uyatlig‘men hanuz,  
To eshittim paykdin ul nomusulmon mujdasin.***

Mumtoz she‘riyatimizda oshiqqa nisbatan o‘z befarqligi bilan zulm va jafod qiluvchi yor ko‘pincha nomusulmon sifati bilan ifodalanadi. Chunki musulmon axloqida musulmonning boshqa bir musulmonga zulm qilishi qattiq qoralanadi. Aynan shu sababli ulug‘ shoir baytda ushbu so‘zdan foydalanadi: lirik qahramon xabarchidan ul nomusulmon yor xabarini eshitganida, jonini naqd berganini aytib, bu ishidan musulmonlar oldida hanuz uyatda ekanligini ta‘kidlayapti.

G‘azal maqta‘si ko‘tarinki kayfiyat, baxtli kelajakka umid ohangini ifoda etadi:

***Ey Navoiy, shomi hijron yig‘larim daf‘ o‘ldikim,  
Subh etkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin.***

Maqta‘da shoir – lirik qahramon o‘ziga o‘zi xitob qilib, hijron shomida yig‘lamlari tugaganligini, bunga sabab sabo tongda xushchaqchaq ma‘shuqa xabarini keltirgani ekanligini ta‘kidlayapti. Baytda uch o‘rinda tazod (*shom-hijron, yig‘lar-xandon, daf‘ o‘lmoq-etkurmoq*) san‘ati qo‘llangan. Shuningdek, g‘azal *radd ul-matla‘*, ya‘ni matla‘ni qaytarish san‘atining go‘zal namunasi sanaladi.

Ulug‘ shoir lirik she‘riyatida xabar mavzusidagi g‘azal va baytlar mazmuni haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin, Navoiyshunoslarimiz ulug‘ shoir g‘azallarini mavzusiga ko‘ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qiladilar: hamd g‘azallar, na‘t g‘azallar, oshiqona (ishqiy mavzudagi) g‘azallar, orifona (tasavvufiy-falsafiy mavzudagi) g‘azallar, axloqiy-ta‘limiy mavzudagi g‘azallar, ijtimoiy mavzudagi g‘azallar, rindona g‘azallar, tabiat tasviri aks etgan g‘azallar, hajviy mavzudagi g‘azallar. Ko‘rinadiki, ushbu tasnifga xabar mavzusidagi g‘azallar kiritilmagan.

Bizningcha, bu mavzusidagi gʻazallar ham oshiqona gʻazallar sirasiga kiritilgan va tadqiqotchilar uchun ularni alohida tasnif qilishga ehtiyoj sezilmagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik/darslik. 1-kitob. – Toshkent, “Tamaddun”, 2019, 294-b.
2. Ishoqov Y. Soʻz san'ati soʻzligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006, 69-b.
3. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent: Akademnashr, 2013, 311-b.
4. Mardanov, R. (2023). O 'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA QOSIDGA MUROJAAT AN'ANASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 414-420.
5. Rahim Gʻaybulla oʻg, M. (2023). “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA QOSID OBRAZINING O 'ZIGA XOSLIGI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(2), 440-442.
6. Xamdamova, X., & Mardanov, R. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDAGI KICHIK JANRLARNI O 'RGANISH TEXNOLOGIYALARI.
7. Erkinovna, A. D. (2024). O'QUVCHILARDA FAN TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH. *Kokand University Research Base*, 76-79.
8. Erkinovna, A. D. (2020, December). ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL CULTURE IN FAMILY. In *Конференции*.
9. Абдувахобова, Д. Э., (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАРИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ, ШАКЛ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ: Абдувахобова Дилдора Эркиновна, *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (7), 180-185.
10. Абдувахобова, Д. Э. (2015). Познавательные мотивы подростка в процессе обучения. *Молодой ученый*, (7), 674-678.